



**“O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TARIX
FAKULTETI 90 YOSHDA: TA’LIM VA ILM-FAN MARKAZI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalari
TO‘PLAMI**

COLLECTION

of the International Scientific-Practical Conference on the topic of
**“90 YEARS OF THE FACULTY OF HISTORY AT THE
NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN: A CENTER
OF EDUCATION AND SCIENCE”**

СБОРНИК

материалов международной научно-практической конференции
**«ИСТОРИЧЕСКИЙ ФАКУЛЬТЕТ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА
УЗБЕКИСТАНА – 90 ЛЕТ: ЦЕНТР ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ»**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI

“O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TARIX FAKULTETI 90
YOSHDA: TA’LIM VA ILM-FAN MARKAZI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalari
TO‘PLAMI

COLLECTION
of the International Scientific-Practical Conference on the topic of
“90 YEARS OF THE FACULTY OF HISTORY AT THE NATIONAL
UNIVERSITY OF UZBEKISTAN: A CENTER OF EDUCATION AND
SCIENCE”

СБОРНИК
материалов международной научно-практической конференции
«ИСТОРИЧЕСКИЙ ФАКУЛЬТЕТ НАЦИОНАЛЬНОГО
УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА – 90 ЛЕТ: ЦЕНТР ОБРАЗОВАНИЯ
И НАУКИ»

TOSHKENT – 2025

UO‘K: 94:378(082)(575.1)

“O‘zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti 90 yoshda: ta’lim va ilm-fan markazi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to‘plami. – Toshkent, 2025. 1024-b.

Collection of the International Scientific-Practical Conference on the topic of “90 years of the faculty of History at the National University of Uzbekistan: a center of education and science”. Tashkent, 2025. 1024-p.

Сборник материалов международной научно-практической конференции «Исторический факультет Национального Университета Узбекистана – 90 лет: Центр образования и науки». Ташкент, 2025. 1024 с.

Mazkur to‘plamda 2025-yil 17-oktyabrda o‘tkazilgan “O‘zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti 90 yoshda: ta’lim va ilm-fan markazi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanidagi maqolalar o‘rin olgan.

Mas’ul muharrir: Ответственный редактор: Executive Editor:
s.f.d., prof. A.G. Muminov

Tahrir hay’ati: Редакционная коллегия: Editorial board:
t.f.d., prof., akad. A.S. Sagdullayev, t.f.d., prof. R.X. Suleymanov,
t.f.d., prof. R.X. Murtazayeva, t.f.d., prof. Z.R. Ishanxodjayeva,
t.f.d., prof. X.E. Yunusova, t.f.d., prof. F.B. Ochildiyev,
t.f.d., prof. O.P. Kobzeva, t.f.d., prof. A.B. Xolikulov,
t.f.d., dots. K.D. Saipova, t.f.n., prof. Z.B. Raxmonqulova,
t.f.d., dots. B. Xaynazarov, t.f.d., prof. A.G. Xolliyev, t.f.d., dots. S.I.Gabrielyan,
t.f.d., dots. Sh.Sh.Choriyev, O.U.Muminov, t.f.f.d. B.V.Eshkuvatov,
t.f.f.d., dots. U.A. O‘sarov, t.f.f.d., dots. J.E. Tog‘ayev, t.f.f.d. S.A. Hamrayev,
t.f.f.d., dots. A.Y. Nazarov, J.X. Adilov, t.f.f.d. T.T. Raishev.

Nashrga tayyorlovchilar: Подготовка к печати: Preparing for printing:
S.A. Hamrayev, J.X. Adilov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti Ilmiy kengashining 10.10.2025-yildagi 2-sonli yig‘ilishi bayonnomasi bilan nashr etishga ruxsat etilgan.

Maqolada keltirilgan ma’lumotlar va mulohazalar uchun mualliflar shaxsan javobgar hisoblanadi.

© Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, 2025.

МУНДАРИЖА

<i>Inom Madjidov. Tabrik so‘zi</i>	16
<i>Алишер Муминов. Кириш сўзи</i>	17

1-СЕКЦИЯ: ФАКУЛЬТЕТ ТАРИХИ ВА УНИНГ ИЛМ-ФАНГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ.

1. <i>Сафоев Содиқ. Билим маскани, тафаккур макони, ҳаёт мактаби (тарих факультети юбилейига)</i>	18
2. <i>Абдуллаев Баҳром. Фан, таълим, умуммиллий, умуминсоний кадрятларни жамлаган маскан</i>	20
3. <i>Jesús Gil Fuensanta, Muminov Otabek. Las estratégicas relaciones científicas y académicas entre España y Uzbekistán. El caso de la Universidad Mirzo Ulugbek de Tashkent</i>	24
4. <i>Зуев Андрей, Белица Татьяна, Речкалова Анастасия, Игнатьева Евгения. Сотрудничество гуманитарного института Новосибирского Государственного университета и исторического факультета Национального Университета Узбекистана</i>	26
5. <i>Муртазаева Раҳбархон Янги Ўзбекистоннинг ёшларга оид давлат сиёсатида инновацион ёндашув</i>	28
6. <i>Дилором Алимова. Современные парадигмы и проблемы развития исторической науки в Узбекистане</i>	31
7. <i>Юнусова Хуршида. Ўзбекистонда илм-фан, таълим тизимидаги ютуқлар ва натижалар ҳақида баъзи мулоҳазалар</i>	37
8. <i>Муминов Алишер. ЎЗМУ тарих факультетининг залворли тарихи</i>	41
9. <i>Адилов Жамшид. ЎЗМУ тарих факультетининг асос солинишида В.Я. Яроцкийнинг илмий ва ташкилий фаолияти</i>	43
10. <i>Дорошенко Татьяна. Яроцкий В.Я. и его роль в основании исторического факультета САГУ</i>	48
11. <i>Котюкова Татьяна. Новые источники по истории Национального университета Узбекистана (письмо профессора В.В. Стратонова академику Н.М. Кулагину. 1920 г.)</i>	51
12. <i>Пшеничная Евгения. Евгений Карлович Бетгер: вклад ученого и педагога в развитие исторической науки</i>	53
13. <i>Madyarova Salimaxon. XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida jahon tarixini o‘qitilishiga doir (TDU (O‘ODU) faoliyati misolida)</i>	55
14. <i>Rezvonova Aziza. Akademik Mixail Massonning ilmiy-pedagogik faoliyati va uning SAGU (TashGU) tarix fakulteti rivojidadagi o‘rni</i>	58
15. <i>Махмудов Ойбек. Значение исследований профессора САГУ А.А. Семенова для изучения исмаилитов Памира</i>	62
16. <i>Аббосов Аббосали. А.Ю. А.Ю. Якубовский ва В.А. Шишкиннинг Бухоро воҳасида археологик тадқиқотлари таҳлили (XX асрнинг 30-40 йиллари мисолида)</i>	65
17. <i>Ҳамраев Суннатилло. ЎЗМУ тарих факультетининг биринчи ўзбек декани А.А. Ҳамраев фаолиятидан лавҳалар</i>	69
18. <i>Иноятова Диларам. Вклад Ширинбека Оразимбетова в развитие исторической науки и образование в Узбекистане</i>	73
19. <i>Адилов Жамшид, Тогаев Жасур, Ҳамраев Суннатилло. Тарих факультети фидойиси: Омон Тошмухамедовнинг ҳаёти ва фаолияти</i>	76
20. <i>Татыбаев Азиз. Памяти Хондамира Гафуровича Гулямова. «Все человеческое было ему не чуждо...»</i>	80
21. <i>Адилова Мадина. Гелий Леонидович Дмитриев: exegi monumentum aere perennius</i>	84

19. *Сафаров Рахмоил*. Карлуки от древности до современности: трансформация и ассимиляция.....535
20. *Сулайманова Сохиба*. Илк ўрта асрларда Суғд бошқарувида туркий унвонлар.....541
21. *Votirova Nafosat*. İlk o'рта asrlarda O'рта Osiyoda kechgan etnosiyosiy va harbiy jarayonlarda Orolbo'yi ko'chmanchilari o'g'ni.....543
22. *Идер Давааццен, Хасанов Мардон*. Система образования в Хорезме в средние века.....546
23. *Исакова Феруза*. Арабская цивилизация и культура: основы и причины их распространения на международном уровне.....549
24. *Нарбеков Абдукомил*. Туркистонда тасаввуф диний-фалсафий таълимотининг ёйилиши.....551
25. *Аминов Бобур*. Султон Мир Ҳайдар мажмуаси (Касби тумани).....554
26. *Шоназаров Шухрат*. К вопросу о символах власти Амира Темура.....558
27. *Мухамеджанова Вера*. Роль женщин в дипломатической истории государства Тимуридов.....562
28. *Нормуродов Дилмурод*. “Янги санганик” хазинасининг Ҳисор тангалари.....564
29. *То'раев Анвар*. Вухородаги арк қо'рг'они ва undagi muqaddas ziyoratgohlar.....566
30. *Парманов Шокир*. Хўжа Илғор ота қабристониди олиб борилган археологик тадқиқот натижалари.....570
31. *Файзрахманова Зарина*. Шайбонийлар сулоласи даврида Бухоро хонлиги.....573
32. *Zamonov Akbar*. Abdullohxon Bahodirning genealogiyasi.....576
33. *Халикова Рахбар*. Шайбонийлар сулоласининг халқаро алоқалари.....579
34. *Nasrilloev Karimjon*. Ashtarxoniy hukmdorlarning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy siyosati: Boqi Muhammadxon davri.....583
35. *Nurmuxammadov Sh.Sh.* Ashtarxoniyalar sulolasida hukmdorlarni taxtga ko'tarish udum va an'analari.....586
36. *Агзамова Гулчеҳра*. Манғитлар сулоласи давридаги ижтимоий ҳимояга доир айрим маълумотлар (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми).....590
37. *Очилдиев Файзулла*. Бухоро амирлиги ва Россия савдо алоқалари тарихидан.....594
38. *Avlayev Kamol*. XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligining Xiva xonligi bilan savdo aloqalarining o'ziga xos xususiyatlari.....598
39. *Каримов Уктам*. Бухоро амирлари - Амир Ҳайдар ва Амир Насрулло ҳукмронлиги даврида Эрон билан халқаро муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари.....601
40. *Турсунметов А.А.* Регулирование питейных заведений в Бухарском эмирате со стороны Русского политического агентства и Туркестанского генерал-губернаторства.....604
41. *Matyakubova Muborak*. Xiva xonligining davlat timsollari (imiji) va ularning iqtisodiy - madaniy taraqqiyotdagi ifodasi607
42. *Турсунов Бустон, Муминзода Некруз*. Из истории дипломатических отношений среднеазиатских государств с Османской империей.....610
43. *Parmonov Sharofiddin*. Kitob begi - Jo'rabek Qalandar Qori o'g'li faoliyati haqida.....613
44. *Ahmedova Nazokat*. Qo'ng'irotlar sulolasi vakillarining Xiva xonligi adabiy- jarayonlaridagi ishtiroki.....617
45. *Begaliyeva Aysha*. XIX asrning oxirgi o'n yilliklarida Rossiya imperiyasi iqtisodiyotidagi o'zgarishlar (og'ir sanoat va transport misolida).....620
46. *Gulimbetov Arislan*. XIX asr oxirida Qoraqalpog'iston hududida savdo-sotiqning rivojlanishi.....623
47. *Alimova Raxima*. XX asr boshlarida Buxoro amirligi chegaralaridagi bojxona xizmati xususida626
48. *Ҳайдаров Зухриддин*. Бухоро-Россия савдо алоқаларида қоракўл тери савдоси.....629
49. *Рыбаков Имануэль, Юсуф Давыдов*.....632

kitoblarida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Podsho Rossiyasi Xiva xonligini bosib olgandan keyin Xiva xonligiga kelgan A.Kun ma'lumotlariga ko'ra Xo'jayli shahridan Qo'ng'irotdan shahrigacha suv yo'li orqali bir kunda yetgan bo'lsa, quruqlikdagi yo'l orqali bu masofani o'tish uchun ikki kun ketgan. Xo'jayli va Qo'ng'irotdan har yili Buxoro xonligiga, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz va Hisor shaharlariga 50 tadan 200 tagacha quritilgan baliq to'ldirilgan qayiqlar yuborib turilgan. Qoqlangan sazan va uloqa baliqlari Xo'jalida 30 tangadan sotilgan bo'lsa, Buxoroda Xo'jalidan keltirilgan baliqlarni 60 tangadan sotishgan [3, 60-b.].

Shunday qilib XIX asr oxirida Qoraqalpog'iston hududidagi xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Rossiya imperiyasining Xiva xonligini bosib olgandan keyin Qoraqalpog'iston hududidagi shaharlarda savdo bir qadar rivojlandi. Bunga O'rta Osiyoga Rossiya kapitalining kirib kelishi, shaharlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi, quruqlik orqali yangi yo'llarning qurilishi, bozorlarda mahalliy tovarlardan tashqari chet o'lkalardagi bozorlardan ham boshqa tovarlarning ko'plab keltirilishi sabab bo'ldi.

Natijada, mahalliy xalqlar orasidan ham taniqli savdogarlar va tadbirkorlar yetishib chiqib, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga o'z ta'sirini o'tkazib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy arxivi. И-907 - fond, 1 -ro'yxat, 161 - ish, 2-160-betlar.
2. Алиханов Аварский М. Поход в Хиву 1873 г. СПб., 1899. с. 191.
3. Беласаров Д. Хожели. Нөкис, 2011.
4. Досумов Я.М. Очерки истории Кара-калпакской АССР 1917-1927. – Ташкент, 1960.
5. Есбергенов Х. Қоңырат тарийхий хэм мәдений естеликлери. Нөкис, 1993.
6. Жалилов О. XIX-XX аср бошларидаги Қорақалпоқ тарихидан. Тошкент, 1986.
7. Камалов С. Вамбери қарақалпақлар туўралы. Нөкис, 1995.
8. Қосбергенов Р. Қарақалпақ халқының колониал дәўирдеги мәденияты хэм турмысы. Нөкис, 1970.
9. 9. Кудияров А.Р. Шымбай тарийхынан. Нөкис, «Қарақалпақстан» 2021.
10. Пайзуллаев Ө. Шымбай изертлеўлер хэм аңызларда. Нөкис. Қарақалпақстан, 1993,
11. Туленова К.Ж. Внутренняя торговля в Хивинском ханстве во второй половине XIX – начале XX века. Ўзбекистон ССР фанлар академиясининг «Ўзбекистонда ижтимоий фанлар» журналы. 1990, № 9, с. 31-32

Alimova Raxima Ruskulovna,

tarix fanlari nomzodi, dotsent,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Тарих факултети 1979 йил битирувчиси

XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI CHEGARALARIDAGI BOJXONA XIZMATI XUSUSIDA

XX asr boshlarida Buxoro amirligi bojxona tizimi masalasi Rossiya hukumatining diqqat markazida bo'lib kelgan. Vaholanki, Buxoro amiri bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, amirlikning siyosiy huquqlari cheklangan, ya'ni uning chet davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri siyosiy munosabatlarga kirishishi ta'qiqlab qo'yilgan, ammo savdo-iqtisodiy aloqalarini davom ettirishiga ruxsat belrilgan. Buxoro amirligi chegaralari faoliyatini bevosita o'rgangan amaldorlarni Rossiya imperiyasiga vassal sanalgan amirlikning chegara bojxonalarida olib o'tilayotgan tovarlardan yig'iladigan boj solig'i Buxoro amiri xazinasiga tushayotganligi tashvishlantirgan. Endi ular hukumat oldiga Buxoro bojxonalarida – chegara orqali o'tkazish punktlari masalasini tezroq hal qilish taklifini kiritib boshlaydi, ya'ni Buxoro amirligi hududlarini yagona Rossiya bojxona chizig'iga kiritish kerak, chegarada rus bojxonalarini o'rnatish va o'tkazish punktlarida tovarlardan yig'iladigan barcha turdagi yig'im va to'lovlar Rossiya xazinasiga tushishini ta'minlash taklifi bilan chiqqan. Oxir-oqibat 1894-yilda Buxoro amirligi

va Xiva xonligi Rossiya chegara chizig'iga kiritiladi. Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini o'zining chegara chizig'iga qamrab olishi natijasida hududda o'zining mavqeini yanada mustahkamlab olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Demak, Buxoro amirligida Rossiya bojxona xizmatining paydo bo'lishi avvalom bor, amirlikning Rossiya imperiyasiga qo'shib olinishi va bu hududda Rossiya manfaatlarini himoya qilish zarurati bilan bog'liq edi. Amirlikning iqtisodiy potentsiali yuqori bo'lganligi tufayli doimo qo'shni davlatlar bilan jo'shqin savdo aloqalarini olib borgan. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga qo'shib olinishi mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega edi. U nafaqat ingliz-hind tovarlarning Buxoro amirligiga yanada chuqurroq kirib borishi yo'lida to'siq bo'ldi, balki amirlikka qo'shni mamlakatlar bilan to'siqsiz savdo-sotiq qilish va amirlikning boy tabiiy resurslarini o'zlashtirish imkoniyatini ham ta'minladi.

Masalan, Turkiston harbiy okrugi shtabi ofitseri A.Galkin [3: 176-196] tadqiqotlarida amirlikning yillik savdo aylanmasi 32 000 000 rublni tashkil qilganligi qayd etiladi. Jumladan, Buxoroga Rossiyadan 10 600 000 rub., Hindistondan 5 475 000 rub., Eron dan 600 000 rub. tovar keltirilgan bo'lsa, amirlikdan Rossiyaga 12 500 000 rub., Hindistonga 420 000 rub., Eronga esa 2 120 000 rub. tovar jo'natilgan [3: 195; 1: 67].

1891-yilda Buxoroga Hindistondan 3 427 290 rubllik 97 495 pud tovar keltirilgan bo'lib, uning 1 760 000 rubllik 44 000 pud tovarlari Afg'oniston orqali olib kelingan, 1 667 290 rubllik 53 495 pudi Eron orqali yetkazilgan [2: 180; 1: 67]. Hindistondan 522 547 rubllik 209 024 bo'lak oq va guldor malmal keltirilgan, shundan 418 387 rubllik 160 544 bo'lak malmal Afg'oniston orqali, 104 160 rubllik 48 480 bo'lak Eron orqali olib o'tilgan. 164 395 rublik 4 697 pud nil bo'yog'i faqat Eron orqali olib kelingan [2: 181-182]. Demak, Hindiston bilan savdo aloqalarida Eronga nisbatan Afg'oniston orqali savdo yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan.

Ma'lumki, 1886-yil 2-mayda Rossiya imperiyasi O'rta Osiyodagi bosib olgan hududlarida Turkiston bojxona okrugini tashkil qiladi. Uning vakolatiga Turkiston general-gubernatorligi, Kaspiyorti viloyati va Yettisuv viloyatining janubiy qismida bojxona ishlarini yuritish vazifasi yuklatildi. O'zlarining an'anaviy boshqaruv tuzilmalarini saqlab qolgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi ustidan 1894-yil 6-iyunda Panj va Amudaryoning o'ng qirg'og'ida bojxona nazorati o'rnatildi.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo, xususan Buxoro amirligi chegara bojxonalarining faoliyati bo'yicha maxsus yo'riqnomalar ishlab chiqqan. Masalan, 1901-yilda Rossiyada O'rta Osiyoda bojxona to'g'risidagi qonunlar va qoidalar to'plami e'lon qilingan. To'plamda Rossiya imperiyasi Moliya Vazirligi tomonidan Buxoro amirligiga olib kelinadigan xorij tovarlariga belgilangan narx-navolar e'lon qilib borilgan. Masalan, 1899-yil 26-aprelda tasdiqlangan Qonun-qoidalar to'plamiga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, ko'k choyni "lunka" va "xalmuri" deb atalgan oliy navining har pudidan 144 rub. 40 kop., "syan-te" yoki "oq-quyruq" deb ataluvchi o'rta navining har pudidan 10 rub. 20 kop., eng past navli "nauzugur" va "patta" navlarining pudidan 6 rub. dan boj solig'i yig'ilishi belgilangan [4: 48].

1901-yildagi "O'rta Osiyoda bojxona tizimiga oid qonunlar va farmoyishlar to'plami"da Rossiya imperiyasi Moliya Vazirligining Harbiy Vazirlik bilan kelishuviga ko'ra, 1895-yildagi nizomga o'zgartirish kiritiladi, unga ko'ra, Buxoro xonligiga o'tkaziladigan ko'k choylarga belgilangan narxlarga ko'ra, 2 modda j. bandiga asosan, ko'k choyni hamma navlari uchun bir pudiga 12 rubl zakot solig'i belgilangan [4: 50]. Bu belgilangan boj solig'i ko'k choylarning qayerdan keltirilayotganligidan qat'iy nazar, ya'ni Eron va Afg'oniston chegarasi, Batum, Baku va Krasnovodsk orqali tranzit yo'li bilan, hatto Irkishtom, Norin va Issiqko'l bojxonalarini orqali keltirilgan bo'lishiga qaramay bir xil narx belgilanganligi nizomda ko'rsatilgan.

Mazkur to'plamda 1899-yilda tovarlarni Buxoro xonligiga o'tkazish ta'qiqlangan moddalarga kiritilgan o'zgartirishlar ham ko'rsatilgan. Unga ko'ra, Buxoro amirligiga olib kirish ta'qiqlangan yevropa tovarlari ro'yxatida opium va barcha narkotik vositalar, o'q otish va sovuq qurollar, kishmish arog'i qayd etilgan [4: 48]. 1900-yilda tasdiqlangan Qonun-qoidalar kitobida Buxoro xonligiga olib kelish ta'qiqlangan tovarlar ro'yxatida 1899-yilda xonlikka olib kirish ta'qiqlangan tovarlar ro'yxatiga qo'shimcha qand-shakar mahsulotlari belgilab qo'yilgan [2: 49].

1911-yildagi Qonun-qoidalar to'plamida obakidandonlar, karamellar, konfetlar va quyultirilgan qiyomlar ham ta'qiqlangan tovarlar qatoriga kiritilgan [5: 35].

Mazkur qonun-qoidalar to'plamida 1894-yildagi ba'zi tovarlarga boj solig'i vaqtinchalik ko'tarilganligi ham e'tirof etilgan. Bu tovarlar ro'yxatida apelsin, limon kabi tovarlarning har pudidan yalpi 1 r. 57 $\frac{1}{2}$ k; xurmo, turk konfetlari (roxat lukum), xolvanning pudidan 4 r. 5 k.; ziravorlar, vanil va shafran pudidan 32 r. 40 k.; kardamom, muskat rangi va muskat yong'og'i pudidan 10 r. 80 k.; chinnigullar, qalampirmunchoq, dolchin, qalampir, zanjabil, bad'yan va boshqa nomlari ko'rsatilmagan ziravorlar pudidan 6 r. 75 k.; lavr bargi, lavr mevasi pudi 2 rub. 92 $\frac{1}{2}$ k.; hind charm poyafzali funtidan 1 r. 95 kop. gacha boj solig'i olish mumkin. Qimmatbaho va yarim qimmatbaho, tabiiy va haqiqiy toshlarga o'xshash sun'iy toshlar, ishlov berilmagan va qirrali, ipga terilgan haqiqiy va sun'iy marvaridlar, marjonlarning bir funti uchun 10 rub.; oq malmal funtidan 1 r. 5 k. boj solig'i yig'ish belgilangan [4: 49-50; 5: 34].

Rossiya imperiyasi Moliya Vazirligi chegara orqali o'tkazish punktlarida tovarlarga tariflarni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqqan. Shunday qilib, 1901-yildagi ko'k choyning barcha navlar uchun yagona tarif o'rnatiladi, unga binoan Buxoro amirligiga Eron va Afg'oniston bilan chegarada ham, Batum, Boku va Krasnovodsk orqali tranzit yo'li orqali olib kelingan kelib chiqishidan qat'i nazar ko'k choylarga bir xil 12 rubl boj solig'i belgilangan.

Shu o'rinda eslatib o'tish joizki, boj olinadigan va olinmaydigan tovarlarni Afg'onistondan Buxoro-Afg'oniston chegarasi orqali bojxona muassasalariga olib o'tishga ruxsat berilgan to'qqizta bojxona nazorat punktlari mavjud bo'lgan, bular: Kerki, Bassaga, Kelif, Chushka-Guzar, Patta-Kisar, Ayvaj, Saroy, Ko'kul, Chubek, Bogarak [6: 29-30].

Buxoro-Afg'oniston chegarasidagi bojxonalarda nazorat o'rnatish maqsadida yo'riqnomalar joriy ishlab chiqilgan. Masalan, 1912-yilda Chegara qo'riqlash alohida korpusi qo'mondoni tomonidan tasdiqlangan "Buxoro-Afg'oniston chegarasida chegara nazorati bo'yicha qoidalar" va "31-Amudaryo chegara brigadasi xodimlariga Amudaryo va Panj daryosida suzuvchi qayiq'larni nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma" yuborilgan va mazkur yo'riqnoma 1912-yil 1-iyuldan kuchga kirishi belgilab qo'yilgan [6: 26]. Bu hujjatlar tegishli Buxoro ma'murlariga ma'lumot va rahbarlik uchun jo'natilgan, shuningdek, Buxoro-Afg'oniston chegarasidagi qo'riqlash xizmati to'liq Rossiya xodimlari tomonidan nazorat ostiga olingan.

Buxoro-Afg'oniston chegarasida chegara nazorati qoidalarida Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi chegara Amudaryo va Panj daryosidan iborat bo'lib, bu daryolardagi barcha orollar Buxoro mulklariga qarashli ekanligi qayd etilgan [6: 29-30]. Amudaryo va 74-sonli chegara ustunidan boshlangan quruqlikdagi davlat chegarasi Kaspiyorti viloyatidan o'tadi va chegara ustunlari bilan belgilangan. Chegara nazorati xodimlari tomonidan chegarada olib o'tiladigan tovarlar daftarlarda qayd etib borilgan.

Amudaryo va Panj daryolarida suzuvchi qayiq'larni nazorat qilish bo'yicha 31-Amudaryo chegara brigadasining mansabdor shaxslariga maxsus yo'riqnomalar joriy qilingan.

Kechuvlarni nazorat qilish yo'riqnomasida Amudaryo va Panj daryosi bo'ylab Oqqum, Kelif, Salti-Ariq, Chushka-Guzar, Patta Kissar, Ayvadj, Taxta-Quvat, Qorovulepa, Saroy, Oqjar, Ko'kul, Chubek, Bo'g'araq kechuvlari mavjud bo'lib, ularda tovarlarni olib o'tish va boj yig'ish masalalari o'rin olgan.

Chegara qo'shinlari alohida korpusi shtabining 1896-yil 13-fevraldagi 2007-sonli ko'rsatmasiga binoan Chegara punktlaridan Afg'onistonning ichki hududlariga olib boradigan aloqa yo'llari, ular orasidagi masafalar bo'yicha to'liq ma'lumotlar to'plangan [7: 5]. Arxiv hujjatlarida Afg'oniston tomonidan so'nggi vaqtlarda Afg'oniston chegaralaridan Buxoro tomonga ko'plab afg'on muhojirlari o'tayotganligi va ayniqsa, Afg'onistondagi barcha qirg'oqbo'yi qishloqlari aholisi bizga ko'chib o'tayotganligi haqida ma'lumotlar mavjud [7: 39]. Bilamizki, asrlar davomida Afg'onistonning shimoliy hududlarida katta miqdorda o'zbek aholisi yashab kelgan va har ikki tomonga bemalol o'tib yurishgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyo xonliklari hududlarini bosib olganidan so‘ng, uning vo‘shni mamlakatlar bilan savdo-iftisodiy munosabatlarini ham nazorat qilishni davom ettirgan. Chegara orqali o‘tkazish bo‘jxona punktlari faoliyati rus ma‘murlari nazoratiga olinishi oqibatida Buxoro amirligi qo‘shni mamlakatlar bilan olib boradigan savdo-iqtisodiy aloqalaridagi ishtiroki chegaralab qo‘yilgan. Chegara orqali o‘tkazish punktlarida yig‘iladigan turli yig‘imlar va to‘lovlar Rossiya imperiyasi xazinasiga tushishi ta‘minlangan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Алимova P.P. Торгово-экономические связи Бухарского эмирата с сопредельными странами Востока (конец XIX – начало XX в.) // Славяно-тюркский мир на пространстве Большого Алтая: история и современность. Материалы IV Международного алтаистического форума. Барнаул, 14-17 сентября 2025 г. – Барнаул, 2025. – С. 65-69.
2. Вирский М. Торговля Бухары // Справочная книжка Самаркандской области на 1894 г. – Самарканд, 1894. – С. 178-187.
3. Галкин А. Краткий очерк Бухарского ханства. «Военный сборник». 1890. № 11. С. 176-196.
4. Сборник узаконений и распоряжений по таможенному устройству в Средней Азии. Изд-е Департамента Таможенных Сборов. СПб., 1901. 224 с.
5. Сборник узаконений и распоряжений по таможенной части в Средней Азии по 1 января 1911 г. Типография отд.корп. погран. Стражи. СПб., 1911. - 250 с.
6. Jamg‘arma I-3, ro‘uxat 1, yig‘ma jild 320.
7. Jamg‘arma I-1396. ro‘uxat 2, yig‘ma jild 1505.

Хайдаров Зухриддин Боратали ўғли
ЎзМУ Археология ва этнология
кафедраси ўқитувчиси
2021 йил Тарих факультети битирувчиси

БУХОРО-РОССИЯ САВДО АЛОҚАЛАРИДА ҚОРАҚЎЛ ТЕРИ САВДОСИ

Бухоро амирлигининг хорижий мамлакатлар билан олиб борилган савдо-сотик муносабатларида Россия асосий ўринни эгаллаган. Рус маҳсулотларига Бухорода, Бухоро маҳсулотларига Россияда талаб ва эҳтиёж катта эди. Икки мамлакат ўртасида амалга оширилган тижорат ишлари XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб бир неча баравар ўсди. Амирликнинг Россия билан олиб борган савдо алоқаларида пахта ва қорақўл терисининг савдоси алоҳида аҳамиятга эга бўлган. Бу маҳсулотлар Россияга экспорт қилинган савдо молларининг 90 фоизини ташкил этган. Қорақўл терисига Россиядан ташқари Европа мамлакатларида ҳам талаб юқори бўлиб, жажон бозорида унинг савдоси самарадор бўлганлигини кўрсатади.

Бухоро амирлиги қишлоқ хўжалигида чорвачилик даромад келтирувчи соҳалардан бири ҳисобланган. Амирликда истикомат қилувчи аҳолининг аксарият қисми чорвачилик билан ҳам шуғуллаган. Маълумотларга кўра, амирликда чорва моларининг умумий сони 10 млн бош бўлиб, шундан 4 млн бошини қорақўл қўйларини ташкил қилган[1, С.43]. Чорвачиликда Қорақўл қўйларини боқишга катта этибор қаратилган бўлиб, деярли мамлакатнинг барча худудларида боқиб келинган. 1840-1850 йилларда Бухородан Россияга Оренбург йўли орқали 427 минг 797 дона, Троицк йўли орқали 60 минг 583 дона қорақўл териси олиб кетилган[2, С.69].

XIX асрнинг охирига келиб чорвачилик аҳолининг даромад манбаига айланди. Соҳада қорақўл қўйлари насли устунлик қилган. Бундай қўйлар Ғузор, Чоржўй, Қарши, Карки ва Калиф бекликларида кўпроқ боқилган. Шарқий Бухорода қўйларнинг Қорақўл,